


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

***70730202-Shahar transporti xo‘jaligi va aloqa yo‘llari
magistratura mutaxassisligining***

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQLGAN VA KIRITILGAN:
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil "01" 08 dagi 077 – sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	8
3.	O'quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.....	9
4.	O'quv rejasidagi yuklama hajmi	10
	Bibliografik ma'lumotlar	11
	Kelishuv varag'i.....	12

1. Umumiy tavsifi

70730202-Shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llari magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanishsohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **70730202-Shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llari magistratura mutaxassisligi** bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor- o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan baklavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70730202-Shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llari-shahar transporti sohasidagi mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli ilmiy tekshruv shaklidagi korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida va xususiy tadbirkorlik subyektlarida shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llari

faoliyatni tashkil etish va boshqarishga oid kompleks masalalarni hal etish, shuningdek shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llari va sohalarini rivojlantirish qurilishda xavfsizlikni ta'minlash, istikbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarning majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

real sektor korxonalarining rivojlanishi strategiyasini ifodalovchi tizimi;

davlat va mahalliy boshqaruv organlari, loyihalash va qurish boshqaruvi organlarida boshqaruv jarayonlari;

transport qurilishining tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari, turli mulkchilik shaklidagi assotsiatsiyalar, korporatsiyalar, firma, kompaniyalar, xolding, ishlab chiqarish birlashmalarida shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llarini xavfsizlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonlari;

shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llari sohasida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalga oshirish jarayonlari;

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari

ilmiy tadqiqot faoliyati;

pedagogik faoliyat;

qurilish va ekspluatatsiyasi faoliyat;

hisob, tahlil va nazorat faoliyati;

qurilish huquq faoliyati;

tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati.

1.2.4. Kasbiy vazifalari:

70730202-Shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llari mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalarini, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashv etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv- metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Qurilish va ekspluatatsiyasi tahlili va nazorat faoliyatida:

davlat, mahalliy xukumat va xo'jalik yurituvchi korxonalar xavfsiz boshqarish bo'yicha O'zbekistan Respublikasi qonunlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;

shahar ko'cha yo'llari xavfsizligining mikdor va sifat ko'rsatkich me'zonlari va ob'ektlar chegaraviy hamda kritik holatining indikatorlarini aniqlash;

shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llari sohasida yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish;

shahar transporti xo'jaligining moliyaviy barqarorligini oshirish va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish;

O'zbekistondagi hamda xorijdagi shahar transporti xo'jaligida sodir bo'ladigan, jarayonlar hamda yo'l transport hodisalarini xarakterlaydigan ko'rsatkichlarni tahlil qilish va qiyoslash, transport harakati xavfsizligiga tahdid soluvchi xavf-xatarlarni aniqlash;

budjet tizimi va budjet parametrlari, budjetdan tashqari turli jamg'armalarning qurilish sohasida bajarilishini nazorat qilish, davlat va mahalliy resurslardan foydalanish borasida qonunbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralari ko'rish;

loyihalash, qurilish faoliyati monitoringini olib borish, qurilish hamda ekspluatatsiya jarayonlarida sifat nazoratini baholash, me'yoriy xujjatlarga rioya qilgan holda aniqlangan kamchiliklarini bartaraf etish choralari ko'rish.

Qurilish huquq faoliyatida:

qurilish sohasida qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, jamiyat, davlat va shaxs hamda xo'jalik faoliyati subyektlarining xavfsizligini ta'minlash;

jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoyalashga ko'maklashish;

iqtisodiy vaziyatlarga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

tashkilot, korxonalar va ularning aloqida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llari xavfsizlik faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar;

reja, hisob-kitob hujjatlarini yuritish, yangi informatsion texnologiyalardan foydalanish yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, va shu sohada yeng yangi ratsionalizatorlik takliflarni tadbiq qilish;

qabul qilinadigan qarorlarni xavfsizlik, va qurilishda xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

shartnomalarni tuzish uchun zarur bulgan hujjatlarni to'plash, qurilish va ekspluatatsiya hisobotlarni tashkil etish;

shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llari bo'yicha korxonalarning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanish xavfsizligini rejalashtirish va amalga oshirish;

shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llari sohasida loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish xavfsizlikni ta'minlash, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar bo'yicha informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

Umumiy kompetensiyalar:

ilmiy dunyokarashga doyr bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, qurilish muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilishqobiliyatiga ega bo'lishi.

Kasbiy kompetensiyalar:

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqishko'nikmalariga ega bo'lish;

Shaharsozlik normalari va qoidalari hamda qurilish sohasiga doir standartlarni bilishi;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

tashkilot, korxonalar va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni

tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yishko'nikmalariga ega bo'lishi;

shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llari tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda xavfsizlik tamoyillarini qo'llay bilishi;

shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llari sohasida bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

loyihalarning samaradorligini baholash, tarmoqlar va sohalar bo'yicha hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llari sohasida bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llari sohasida bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llari sohasida bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

transport qurilishda ayrim vaziyatlarga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo'lish;

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ekspertizadan o'tkazishni bilish.

Kasbiy kvalifikatsiyalar:

Bosh quruvchi (shahar ko'cha-yo'llarini qurish, avtomobil yo'llarini qurish), shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llari tashkilotlarida kapital qurilish bo'yicha direktor, kapital qurilish bo'yicha muhandis, qurilish nazorati bo'yicha muhandis, ishlab chiqarish va kapital qurilish bo'yicha muhandis, shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llarining ta'mirlash korxonalarida ta'mirlash bo'yicha muhandis, shahar ko'cha-yo'llari va injenerlik inshootlarini ta'mirlash bo'yicha muhandis, shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llaridan foydalanish bo'yicha muhandis, muxandis-quruvchi, shahar ko'cha-yo'llari va injenerlik inshootlarini, aloqa yo'llarini loyihalash institutlari va ilmiy-tadqiqot institutlarida muxandis kvalifikatsiyalariga ega bo'lish mumkin.

3. Fanlar katalogining tuzilishi:

Barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilanadi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli auditoriya

mashg'ulotlarining eng yuqorihajmi haftasiga - 30 soat qilib belgilanishi mumkin, qolgan soatlar hajmi mustaqil ta'lim uchun ajratiladi.

Joriy, oraliq va yakuniy attestatsiyalarni hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturining umumiy hajmi 2 yillik o'quv davri uchun haftalik o'quv yuklamalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

O'qishning normativ muddati 2 yil bulganda o'quv jarayoni 100 haftani tashkil etishi zarur.

O'quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanishi maqsadga muvofiq:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kridet miqdorlari	Semestri
1.00		Umumiy majburiy fanlar	1440	48	1,2,3
1.01	ITM1104	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'M1104	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	1
1.03	QSM1106	Qurilish sahoadigi me'yoriy xujjatlar tizimi	180	6	1
1.04	SHTIY1204	Shahar transporti inshootlarining injenerlik yechimlari	120	4	2
1.05	SHQAPYR1112	Shahar va qishloq aholi punktlari yo'llarini rejalashtirish	360	12	1,2
1.06	SHXKO1110	Shahar hududini kompleks obodonlashtirish	300	10	1,2
1.07	SHKYTTE1204	Shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini texnik ekspluatatsiyasi	120	4	2
1.08	YM1204	Yo'l muhandisligi	120	4	2
2.00		Tanlov fanlari	360	12	3
		<i>Tanlov fanlar (3 ta)</i>	360	12	3
Kvalifikatsiya		Shahar transport xo'jaligi va kommunikatsiyasini tashkil etish bo'yicha muhandis (pedagog-tadqiqotchi)			
		Jami:	1800	60	
3.00		Ilmiy faoliyat			
3.01	ITIMDT1130	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	900	30	1,2,3,4
3.02	IPI1112	Ilmiy-pedagogik ish	360	12	1,2,3
3.03	IA(S)1418	Ilmiy amaliyot (stajirovka)	540	18	4
		Jami:	1800	60	
		HAMMAS	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

GuruxT55


QKC 01.040.01

Tayanch suzlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va t-learning texnologiyalari, shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llari, transport tarmoqlari va sohalari, ekspert xizmati, baholash, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, qurilishda xavfsizlik, ekspertiza, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, nazariya, amaliyot.


Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
Rektor  B.A. Tulaganov
» _____

KELISHILGAN:


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni
tatbiq etish markazi

Direktor  M. Boltaboyev
2024 yil « _____ »
M.O. _____


"O'ZSHAHARSOZLIK LITI" DUK

Direktor  B.X. Elmuradov
2024 yil « _____ »
M.O. _____

Qurilishda texnik me'yorlash va
standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti

Direktor  SH. Sodiqov
2024 yil « _____ »
M.O. _____

Toshkent Uyjoy LITI AJ

Direktor  B.B. Ubaydullayev
2024 yil « _____ »
M.O. _____

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

70730202 – Shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llari magistratura mutahassisligi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ” _____ 2024 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – “O'ZSHAHARSOZLIKLITI” DUK bosh direktori B.X.Elmuradov, “Toshkent uy-joy LITI” AJ bosh direktori B.B. Ubaydullayev, “Qurilishda texnik me'yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti” direktori Sh.Sodiqov, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti rektori v.v.b. B.A.Tulaganov birgalikda TAQUda ishlab chiqilgan quyidagi magistrature mutahassisligining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70730202 – Shahar transporti xo'jaligi va aloqa yo'llari magistratura mutahassisligi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, 2022 yil 8 noyabrdagi “Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-416-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2023 yil 2 maydagi “Arxitektura-qurilish muhandisligi sohalari rahbar va mutahassislari hamda ishchi kasb egalarining malakasini oshirishi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 179-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**“O'ZSHAHARSOZLIKLITI” DUK bosh
direktori**

B.X. Elmuradov

**“Qurilishda texnik me'yorlash va
standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti”
direktori**

SH. Sodiqov

“Toshkent Uyjoy LITI” AJ bosh direktori

B.B.Ubaydullayev

**Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
rektori v.v.b.**

B.A.Tulaganov